

**MAKTAB O'QUVCHILARINI XORIJIY TIL O'RGANISHGA  
QIZIQTIRISH VA XORIJIY TILLARNI TEZ, OSON O'QITISH  
METODIKASI**

*Fayzullayeva Nodira Sherali qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti Xorijiy til va adabiyoti  
yo'nalishi 2-23 guruh talabasi*

*Qosimov Anvar Bahrom o'g'li*

*Shahrisabz davlat pedagogika institute, Ilmiy rahbar*

*Annotatsiya: Ushbu maqola maktab o'quvchilarining xorijiy tillarni o'rganishga qiziqtirish, til o'rganishga jalb qilish masalalari va xorijiy tillarni o'quvchilarga tez, oson va samarali o'qitishning zamonaviy metodikalari haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: xorijiy til, o'qitish metodikasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro va milliy sertifikat, ko'rgazmali materiallar.*

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga kata e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan ,2012-yil 10-dekabrda joriy qilingan "Chet tillari o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, shuningdek 2013-2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'qitishning joriy etilishi buning dalilidir. bundan tashqari, o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qaroriga asosan boshlang'ich sinflardan o'qitish joriy qilindi. Yuqorida keltirilgan qarorlardan xulosa shuki xorijiy tillarni o'qitishni 11 yillik uzluksiz ta'lim tizimidan qat'iyan joriy qilish zarur. Mamlakatimizda chet tilini bilish darajasini oshirishni hohlasak buni ,avvalo yosh ovloddan boshlashimiz

lozim. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy tillarni orgatish va oqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan kelajak uchun mustahkam poydevor boladigan yangi tizimni yolga qoyishni ustuvor mezonlardan biri etib belgiladi: “Biz raqobatdosh davlat qurishni oz oldimizgamaqsad qilib qoygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy oquv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. O`zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda”.

Maktab o`quvchilarini chet tillarini o`qitishga qiziqtirish uchun quyidagilarga e`tibor berish shart. Maktab darsliklarida xorijiy til dars soatlarini belgilashda va ularning mavzu rejalarini tanlashda chuqur izlanish maqsadga muvofiq bo`ladi, chunki bu eng avvalo o`quvchilar Yoshi, ya`ni sinf darajasi va tanlangan xorijiy tilning qiyinlik ko`lamiga bog`liq. Olimlar til o`rganish xotiraning mustahkamlanishi, diqqatni jamlash, ijodiy va tasavvur boyligining o`sishi, nutqning rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatishini isbotlashgan. Chet tilini o`rganishni erta boshlagan bolalar odatda tengqurlariga qaraganda yuqori aqliy salohiyatga ega bo`ladilar. Bundan tashqari, til o`rganish jarayonining o`zi bolaga ko`plab ijobiy kechinmalar ulashadi. Xorijiy tilini organish orqali dunyo yoshlarining intellektual salohiyatidan boxabar bolish, ular bilan fikr almashish, jarayonni chuqur tahlil qilib oz yutuq va kamchiliklarimizni ularniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bolamiz. Xorijiy til o`rganish uchun tanlashda uning hozirgi kundagi mavqei va xalqaro til ekanligi muhim xususiyatidir. Xo`sh, qaysi tillar xalqaro tillar sirasiga kiradi? Ingliz , Fransuz, Arab, Portugal, Ispan, Rus, Nemis va Xitoy .Shuning uchun, o`quvchilar darsligi uchun tanlangan tilga ham e`tibor berish lozim. Bundan tashqari quyidagilar ham muhim ahamiyatga ega : 1-2-sinf o`quvchilari uchun tanlangan xorijiy til mavzularining eng sodda ,ya`ni boshlang`ich darajasi : alifbo, raqamlar, ranglar, mevalar shu kabi kundalik hayotimizda qo`llaniladigan oson so`zlar majmuasi qo`llanilishi lozim. 3-4-sinf o`quvchilari xorijiy til darslik yuklamasiga ma`lum miqdorda so`zlashish qobiliyati, she`rlar ,kichik hajmdagi ertak , hikoya va matnlar qo`shish shart. 5-sinfdan

yuqorilar uchun xorijiy til grammatikasi ,qoidalari so'zlarning to'g'ri talaffuzi, adabiyotlari vaxorijiy tilga oid barcha bilimlar bosqichma-bosqich o'rgatilishi samarali natija beradi. Darslik rejada quyidagilar bo'lishi o'quv natijasini yuqori darajaga chiqaradi : O'qish: 1) Inglizcha kitob, jurnal, gazeta o'qing. 2) Qo'l telefoningiz va kompyuteringizning tilini inglizchaga o'tkazing. 3) Mobil ilovalardan foydalaning . Yozish: 4) Blog yozing 5) Yangi so'zlarni e'tiborda tuting 6) Forumlardagi bahslarda ishtirok eting. Tinglash: 7) Inglizcha qo'shiq tinglang 8) Inglizcha TV-kanallarini tomosha qiling 9) Musobaqalarda qatnashing 10) Podkast tinglang . Muloqot : 11) O'zingiz gaplashing va yozing 12) Inglizabon do'stlar orttiring Bu o'qitish jarayoni natijasida o'quvchilarda xalqaro va milliy sertifikatlar ( IELTS, CEFR,CELTA va shu kabilar ) ni egasi bo'ladigan o'quvchilar tayyor bo'ladi . Bundan tashqari,mavzularni to'g'ri tanlash o'quvchilarni chet tilini o'rganishga qiziqishini oshiradi ,ya'ni ular darsni o'zlashtirishda hech qanday muammoli ,tushinarsiz jumboqlarga duch kelishmasa , kelganda ham bu mavzu yuzasidan ularga mos , ya'ni o'quvchilar ongining shakllanganligi hisobga olingan tarzda tanlansa ,natijada o'rganuvchilar tasavvurida “til” o'rganish qiyin emas ,balki qiziqarli oson va kelajak uchun foydali kabi tushunchalar paydo bo'ladi.

Xorijiy tillarni o'quvchilarga tez, sodda va tushinarli o'qitish ham uning o'quvchilar ongida ijobiy fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi . Buning uchun, birinchi navbatta o'qituvchidan “creative” bo'lish talab qilinadi va to'g'ri metodikalar qo'llash ham samara beradi. Hozirgi kunda o'quv jarayonlarida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish lozim. Bularga misol tariqasida Xitoy tajribasini olsak :

- 1.Ko'rgazmali qurollar,plakatlar va kitoblar orqali ishlash ;
- 2.Sinf muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va harakatli o'yinlardan foydalanish;
- 3.Ta'lim darajasini oshirishda imo-ishoralar ,yuz ifodasining o'rni;
- 4,Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun jumboq o'yinlardan foydalanish :
- 5.O'qitish samaradorligini oshirish uchun multemediadan foydalanish.

Chet tilini o'rgatish qiyin ish. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, chet tilini o'qitishda interfaol usullarning o'rni juda muhim, chunki u o'quvchilarni

rag'batlantiradi va butun dars davomida ularning qiziqishlarini saqlaydi. Interfaol usullarga o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar, mashg'ulotlar kiradi. Xorijiy til darslarida interfaol usullardan foydalanish foydaliroq va mazmunli hamda, yangi so'z va so'z birikmalarini, mavzuni, madaniyatni va hokazolarni o'rgatishning oson usuli hisoblanadi. Shuningdek, chet tilini o'qitishda o'yin faoliyati ta'lim faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir, masalan: rolli o'yinlar, raqobatlashib o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ijodiy o'yinlar kabi usullarni ham dars metodikasi sifatida foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini va qiziqishini oshiradi. Axborot texnologiyalari asrida yashar ekanmiz, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishimiz dars mashg'ulotlarining unumdorligini oshiradi. Maktab programmasida axborot texnologiyalar quyidagi hollarda qo'llash maqsadga muvofiq: mavzuga doir rasmlar ko'rsatish, video darsliklar, multfilm va shu kabi axborot resurslari.

Xulosa, o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, rivojlanayotgan mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanishimiz shart. Prezidentimizning xorijiy tillarni O'zbekiston Respublikasi maktablari darsliklari qatoriga qo'shishidan asosiy maqsad ham yoshlarni ilimli bo'lishini shuningdek, davlatimiz rivoji uchun hissalarini qo'shishini ta'minlashdir. Davlat hududida istiqomat qiluvchilar 2 va undan ortiq tilni bilsa bu, bu davlat aholisining ilmga chanqoqligi va xalqining bilimli ekanligini isbotlaydi. Xorijiy tilini o'rganish orqali dunyo yoshlarining intellektual salohiyatidan boxabar bolish, ular bilan fikr almashish, jarayonni chuqur tahlil qilib oz yutuq va kamchiliklarimizni ularniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bolamiz. Kishi o'z sohasini yaxshi bilsa bitta eshik, chet tilini ham bilsa yana bir eshik ochiladi. Aynan, til bilish butun dunyo bilimlari uchun eshik ochadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6 may kuni chet tillarini oqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor

yigilishi.

3. Gulbahor Alimovna Shakirova, Xorijiy tilni o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llash, Hayot Davomida Ta'lim Olish: Yangi Paradigmalar Va Kutiladigan Natijalar Fan, Ta'lim Va Amaliyot Integratsiyasi FTAI Respublika Konferensiyasi, 25.06.2022, Issn: 2181-1776

4. J. Jalolov "chet tilini o'qitish metodikasi" 2012

5. Galsokova N.D. Nikitenko Z.N. chet tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyoti . Boshlang'ich maktab uslubiy qo'llanma

6.O'. Hoshimov , I. Yoqubov "ingiliz tilini o'qitish metodikasi" – Toshkent 2003

7.Til o'qitishning kommunikativ yondashuvi 2014 Ma'suma Akbarova.

8. Li Su Kimning "Til sinflari uchun ijodiy o'yinlar". "Forum" jild. 33 No 1, 1995 yil yanvar – mart, 35-bet

7. <https://sinaps.uz/maqola/7894/>

8. Qosimov Anvar "Unlocking the benefits of bilingualism : A Comprehensive exploration" maqola 04.05.2024 173-175 bet